

PARLAMENT FAOLIYATI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hokimiyat tushunchasini ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tadqiq etgan xorijiy va mahalliy olimlarning g'oyalari va ushbu yo'nalishlarda shaxsiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, ilmiy manbalarda parlament tushunchasi, tarixi va tuzilishi haqida ma'lumotlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, "parlament" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: "hokimiyat", "davlat hokimiyati", "parlament", "parlamentarizm".

Аннотация: В статье представлены идеи зарубежных и отечественных ученых, изучавших понятие власти с научной, теоретической и правовой точки зрения, а также личные мнения в этих областях. Проанализированы сведения о понятии, истории и структуре парламента в научных источниках. При этом предложено авторское определение понятия «парламент».

Ключевые слова: «власть», «государственная власть», «парламент», «парламентаризм».

Abstract: The article presents the ideas of foreign and domestic scientists who have studied the concept of power from a scientific, theoretical and legal point of view, as well as personal opinions in these areas. This article analyzes scholarly sources on the concept, history, and structure of parliament. The author also offers a definition of "parliament".

Key words: "power", "state power", "parliament", "parliamentarism".

Hokimiyat masalasi hech qachon siyosiy maydondan chetda bo'lmagan va har qanday hollarda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan [1; S. 13].

Bugungi kunda hokimiyat masalasini falsafa, siyosatshunoslik, davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq kabi qator fanlar tomonidan tadqiq etilib o'rganilmoqda. Ilmiy muomalada esa, hokimiyat haqidagi alohida fan – "kratologiya" ("kratos" - hokimiyat, kuch va "logos" - ta'limot) xususida ham so'z yuritilmoqda [2; S. 97-107, 224-238].

Ma'lumki, hokimiyatning mohiyatini bilmasdan va chuqur bilimga ega bo'lmasdan, hokimiyatning tizimi, uning tarmoqlari va ular o'rtasidagi munosabatlar, ushbu hokimiyatlar tizimida parlamentning o'rni haqida muayyan bilimlarni egallash mumkin emas.

Shu o'rinda "hokimiyat" tushunchasini ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etgan ilmiy manbalarga murojaat qilamiz.

Hokimiyat – nufuz, huquq, zo'rlik orqali o'z irodasini amalga oshirish, odamlar va ularning xatti-harakatlariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazish va kamida ikki kishi o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabat [3; S. 77, 93-94, 14]. Hokimiyat – bu, yovuzlik, mutloq hokimiyat esa – mutloq yovuzlikdir. Hokimiyat doima ahloqqa hilofdir [4; S. 13]. Har qanday

hokimiyat hokimiyatsizlikdan ko'ra afzalroqdir [5; S. 13]. Hokimiyat insonlarning umumiy irodasiga bo'ysinishga asoslangan kishilar jamoasini (jamiyatni) tashkil etib, uning yaxlitligi va birligini ta'minlash uchun zarur [6; S. 376-380].

Marks va Lenin nazariya vakillari hokimiyat faqat zo'ravonlik va bir shaxsning (shaxslarning) ikkinchi bir shaxsni (shaxslarni) kuch bilan bo'ysindirishini anglatmaydi. Aksincha, hokimiyat ko'proq bir shaxsning (shaxslarning) ikkinchi bir shaxsga (shaxslarga) ta'sir o'tkazish, inson irodasiga bo'ysindirish zarurati va jamoa bo'lib yashash, jamiyatda kishilarni birlashtirish ehtiyoji sifatida vazifalarni amalga oshirgan. Hokimiyat insonning ijtimoiy tabiat mahsulidir [7; S. 458].

Yuqoridagi ta'riflarda bir vaqtning o'zida ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi, ham ushbu huquqlarni va erkinliklarni ma'lum darajada cheklashini anglatib, kishilik jamiyatida hokimiyatning zaruratini ongli ravishda tushunadigan shaxslar ko'p bo'lsa, hokimiyat faoliyati shuncha mustahkam bo'lishi tabiiy.

Ushbu tushunchalar har bir davrning mavjud ijtimoiy hayoti asosida e'tirof etilgan. Hokimiyat jamiyatning samarali hayoti uchun muhim hisoblanadi, hokimiyatsiz insoniyat taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Jamiyat mavjud bo'lar ekan bu o'z navbatida hokimiyat bo'lishini talab etadi. Ya'ni, har bir jamiyatda insonlar alohida-alohida emas, qayta birlashib turmish kechirishi, ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ma'lum bir tartib-tamoyillar bilan tartibga solish zarurati mavjud bo'ladi. Hokimiyatning kelib chiqish sabablarini jamiyatdan, kishilarning o'zaro jamoat bo'lib yashash ehtiyojidan izlash lozim [8; S. 224]. Hokimiyat eng avvalo uning a'zolari umumiy irodaga bo'ysinishga asoslanib, kishilar jamoasini (jamiyatni) tashkil etish, uning yaxlitligi va birligini ta'minlash uchun zarur [9; S. 376-380]. Hokimiyat insonning ijtimoiy tabiati mahsulidir [10; S. 458].

Shu o'rinda qayd etish zarurki, kadimgi davrlarda ijtimoiy qatlam yoki guruhlariga ajratilgan holda jamiyat mavjud bo'lmagan yohud bir-birlariga manfaatlar qarshi bo'lganligi sababli uyishgan hokimiyat bo'lmagan, uning o'rnida muayyn oila, urug' yoki qabila shaklida bo'lgan.

Asta-sekinlik bilan insonlarning manfaatlari uyg'unlashib borgan sari hamda manfaatlar mushtaraklashganligi bilan taraqqiyotga qadam boshlangan. Shu tariqa insonlar turli-xil tabaqalar, ijtimoiy birliklar va guruhlariga bo'linib, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qiyinlashib borgan. Natijada ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, birlashtirish va maqsad sari davlat hokimiyati shakllangan. Bir so'z bilan aytganda kishilik jamiyati tabaqalashgan sharoitda paydo bo'lgan.

Davlat hokimiyatining ijtimoiy hokimiyatning boshqa turlaridan (oilal, ijtimoiy guruh va boshqalar) farqi shundaki, u alohida shaxs yoki ijtimoiy guruhning emas, balki butun jamiyat manfaatlarini jamlaydi va ifodalaydi. Davlat hokimiyati jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy jarayonlar boshqaruvini ta'minlaydi. Shu ma'noda, davlat hokimiyati ijtimoiy hayotning eng murakkab fenomenlaridan bo'lib, unda insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim qirralari aks etadi [11; S. 10].

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida "davlat hokimiyatini" ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida tahlil qilingan manbalarga murojaat qilamiz.

Davlat hokimiyati hokimiyatning ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega turi sifatida ommaviy-siyosiy tusda bo'ladi. Uning asosiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iboratdir [12; S. 5]. Davlat hokimiyati – bu, davlat organlari va muassasalarida gavdalangan davlat irodasi va kuch-qudratining jamlangan ifodasidir. U har xil vositalar, jumladan, davlat majburlovi va harbiy kuch orqali tenglik, erkinlik hamda adolat yo'lida jamiyatda tartib va barqarorlikni ta'minlaydi, o'z fuqarolarini ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qiladi [13; S. 27]. Davlat hokimiyati ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, u muayyan yirik ijtimoiy birlik (xalq, sinf va boshqalar) siyosiy hokimiyatning namoyon bo'lish shaklidir [14; S. 85]. Davlat hokimiyati rasmiy tuzilmalarning davlat majburlovi vositasida insonlar irodasini butun jamiyat yoki uning muayyan qismi irodasiga bo'ysindirish qobiliyatida ifodalanadi [15; S. 48].

Ushbu qarashlar davlat hokimiyati avvalo uning kuch-qudrati, jamiyatni boshqarishda esa ommaviy-siyosiy xarakterga egaligi, shuningdek, ijtimoiy munosabat sub'ektlarini ichki va tashqi g'ayriijtimoiy tajovuzlardan himoya qilishi bilan izohlangan.

Davlat hokimiyatining mohiyatidan kelib chiqib, uning quyidaga asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

ommaviylik - davlat hokimiyati butun jamiyat, xalq nomidan ish ko'radi va o'z faoliyatining ommaviy manbalariga ega bo'ladi - davlat mulki, soliqlar va boshqalar; maxsus apparatga ega - davlat hokimiyati yaxlit tizimni tashkil etuvchi davlat organlarida ifodalanadi va ular orqali amalga oshadi; oliy hokimiyat hisoblanadi - davlat hokimiyati ijtimoiy hokimiyatning boshqa barcha ko'rinishlaridan ustun turadi. U qonunlar va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarni qabul qilish hamda majburlov kuchidan foydalanish borasida monopol huquqqa ega; suverenitet - davlat hokimiyati ichki va tashqi munosabatlarda, davlat ishlarini yuritish sohasida mustaqil hisoblanadi; legitimlik - davlat hokimiyatining mamlakat xalqi, shuningdek xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinganligini ifodalaydi; legallik - davlat hokimiyatining huquqiy jihatdan (konstitutsiya va qonunlar asosida) shakllanganligini ko'rsatadi [16; S. 215].

Davlat hokimiyati muayyan hudud doirasida davlatni tashkil etuvchi xalqning siyosiy birligini anglatadi. Davlat hokimiyatining yaxlitligi xalkning (hech bo'lmaganda ko'pchilikning) siyosiy birligiga asoslanadi [17; S. 180-181]. Ushbu o'rinda qayd etish kerakki, davlat hokimiyati tushunchasiga nisbatan siyosiy hokimiyat tushunchasi keng bo'lib, siyosiy hokimiyat bir vaqtning o'zida davlat hokimiyati bilan birga, davlatning siyosiy kurlari va siyosiy institutlarini, shuningdek, davlatning boshqa siyosiy-ijtimoiy bo'g'inlarini o'z tarkibiga qamrab oladi. Ilgari surilgan mazkur fikr-mulohazalarning tasdig'i sifatida huquqshunos olim V.E.Chirkinning qo'yidagi g'oyalarini keltirishimiz mumkin: "Davlat hokimiyati doima siyosiy hokimiyatdir. Lekin har qanday siyosiy hokimiyat – davlat hokimiyati emas [18; S. 84]".

Davlat hokimiyati munosabatlari ham ob'ekt, sub'ekt va vositalardan tarkib topadi. Demokratik davlat hokimiyatining sub'ekti - xalq va xalq nomidan ish ko'ruvchi davlat apparatidir. Davlat hokimiyati ob'ekti esa - tor ma'noda shaxs, ijtimoiy guruh va tashkilotlar, keng ma'noda esa, jamiyat hisoblanadi. Davlat hokimiyati vositalari huquq, nufuz, kuch va boshqalarda ifodalanadi. Qoida tariqasida davlat hokimiyati sub'ekti konstitutsiya va qonun hujjatlari asosida davlat organlari tomonidan davlat hokimiyatining qaysi hajm va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatib, davlat organlari uchun huquqiy chegarani belgilab

beradi. Mana shu chegara doirasida davlat organlarining faoliyati qonuniy hisoblanadi. Ba'zan, davlat organlari o'z qo'llarida haddan ortiq hokimiyatni to'plab, jamiyat va xalqdan ustuvorlik qilishga hamda yakka hokimiyat (diktatura) o'rnatishga harakat qiladi [19].

Sir emaski, demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan har bir davlat jamiyat boshqaruvidagi vakolatli sub'ekt (mansabdor shaxs) yohud davlat organlari ixtiyorida xaddan tashqari hokimiyat vakolatlari to'planib qolishiga doir salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha, shuningdek, davlat hokimiyati taqsimlanish tamoyilini mamlakat Asosiy qonunida mustahkanlab qo'ygan.

Davlat hokimiyati zo'ravonlik bilan emas, balki o'z hukmining ta'sirchanligi va adolat bilan boshqarishga tayanmog'i kerak [20; S. 106].

Davlatning kuch-qudrati - avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi [21; S. 334-335].

Kuchli davlat - bu davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanish tizimi izchil ishlaydigan, ushbu tizimda hokimiyatning har bir bo'g'ini o'ziga xos kuch-qudratiga ega bo'lgan, jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy munosabatlar oqilona va adolatli, xalq irodasini ifoda etuvchi qonunlar bilan tartibga solinadigan hamda qonunlarning bekami-ko'st bajarilishi ta'minlanadigan insonparvar demokratik huquqiy davlatdir [22; S. 17].

Yuqorida keltirilgan turli-xil g'oyalarni umumlashtirgan holda shuni e'tirof etishimiz zarurki, taraqqiyot yo'lini qat'iy tanlagan har bir mamlakatning kelajagida davlat hokimiyati faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, davlat hokimiyat tizimidagi barcha davlat xizmatchilari qaysi yo'nalishlar bo'yicha mas'ul va javobgar bo'lishidan qat'iy nazar yuklatilgan vazifa va vakolatlarni vijdonan va xalol amalga oshirishi bilan birga, avvalo, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida samarali faoliyat yuritishni talab etadi. Bu esa, o'z-o'zidan xalq va mamlakatning ertangi kunidagi taqdirini belgilab beradi. Bunga insoniyatning bir necha ming yillar davomidagi tarixiy tajribasi yaqqol tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev qayd etib o'tganidek, "Sir emas, so'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida "qurolli to'qnashuvlar", "ekologik va texnogen fojialar", "iqtisodiy inqirozlar", "savdo urushlari", "terrorizm va ekstremizm" tahdidlari tobora kuchayib bormoqda. Bunday o'ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda parlamentlar ishtiroki va ta'sirini oshirishni zamonning o'zi talab etmoqda [23]."

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning tutgan o'rni haqida to'xtalishdan oldin parlament tushunchasi, tarixi va tuzilishi haqida qisqacha tuxtalishni joiz toptik.

Parlament so'zining lo'g'oviy ma'nosi frantsuzchada "parla" - "gap", "so'z", "bahs", "ment" - "joy", "o'rin" demakdir. Demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi [24; S. 143].

Aksariyat soha olimlari tomonidan e'tirof etganidek, hozirgi zamonaviy parlamentning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Xususan, o'rta asrlarda Yevropaning asosiy aholi qatlamlari vakillik organlari orqali davlat boshqaruvida qatnashish huquqiga ega bo'lgan. Masalan, dastlab o'rta asrlarda yuzaga kelgan va vakillik organlari

singari tegishli vazifalarni amalga oshirgan qadimgi Yunonistondagi “Bule - to'rt yuzlar kengashi” va “Besh yuzlar kengashi”, shuningdek, qadimgi Rimdagi “Xalq majlislari”, “Senat” va “Magistraturalar”ni keltirishimiz mumkin [25; S. 208-212, 264-270]. Shuningdek, tabaqaviy parlamentlar esa, dastlab “Pirenay” yarim orolida – “Leon” va “Aragonda” sifatida shakllanib, “Korteslar” degan nomga sazovor bo'lgan. Shu bilan birga, Qirol huzurida tashkil etilgan tabaqaviy vakillik organlari sifatida chunonchi, Frantsiyada – “General shtatlar”, Olmon mamlakatlarida – “Reyxstagi landtaglar”, Polshada – “Seym” deb nomlangan [26; S. 168-179, 163-177].

Angliyada parlament 1265-yilda tashkil etilgan. Uning asosiy sabablaridan biri, usha yilda yuzaga kelgan fuqarolar urushidagi ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etish zaruriyati sifatida qayd etiladi [27; S. 266-268]. Ushbu parlament tarkibi “Lordlar”, “Dunyoviy va ruxoniy feodallar” hamda “Ritsarlar va shaharliklar”dan tashkil topgan. Mazkur parlament dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan bo'lsa, 1343-yilga kelib ikki palatali parlament ya'ni, “Lordlar” va “Umum” palata sifatida taqsimlangan. Jumladan, Umum palata tarkibi – “Ritsarlar va shaharliklar” kiritilgan bo'lsa, Lordlar palatasi tarkibiga esa – “Magnatlar va ruxoniylar” o'rin olgan. Ushbu parlamentning dastlabki asosiy vakolatlari – “mulklarga solinadigan soliqlar miqdorini belgilash” va “qirolga jamoaviy murojaatlarni kiritish”dan iborat bo'lgan. Keyinchalik esa, parlament vakolatlari kengaytirilgan. Xususan, “mamlakat qonunlarini qabul qilish jarayonida qatnashish”, “xalqdan soliqlarni undirishga doir masalalarni hal qilish”, shuningdek, “mamlakatning oliy mansabdor shaxslari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish” hamda ayrim hollarda “alohida sud ishlarini olib borish” bo'yicha muhim vakolatlarni qo'lga kiritgan.

XIV asrning o'rtalariga kelib “xalqdan soliqlarni undirish parlamentning rozilgisiz amalga oshira olmaslik” bo'yicha ham vakolatlari kengaytirilgan.

XV asrga kelib esa, “mamlakatning qonun loyihalarini ishlab chiqish”, “xalqqa subsidiyalarni manzilli belgilash va ularning sarflanishini nazorat qilish” bo'yicha ham mutloq huquqlarga ega bo'ladi.

Soha olimlari “parlament” tushunchasi bo'yicha turlicha ta'riflarni qo'yidagicha ilgari suradi:

birinchidan, parlament – xalq xohish-irodasini ifoda etib, qonun chiqarish yo'li bilan jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, ijro hokimiyat organlari va uning mansabdor shaxslari ustidan umumiy nazorat olib boradigan markaziy organ [28; S. 23];

ikkinchidan, hozirgi zamon parlamenti xalqning suveren irodasini ifodalovchi xalq vakilligining oliy organi, hozirgi zamon parlamenti muhim ijtimoiy munosabatlarni, asosan qonunlarni qabul qilish orqali tartibga soluvchi, ijro hokimiyat organlari va oliy mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, xalqning suveren irodasini ifodalovchi xalq vakilligining oliy organi [29; S. 76];

uchinchidan, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi o'z tushunchalarini parlament orqali nafaqat qonun ijodkorligi jarayoni, balki davlatni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlari bilan bog'lashini [30; S. 3];

to'rtinchidan, parlamentning vakillik asosida tarkib topishi va faoliyat ko'rsatishi xalqning siyosiy irodasi shakllanishiga ko'maklashishi [31; S. 53], xalq hokimiyatchiligini ta'minlashning eng samarali yo'li xalq vakilligini rivojlantirish hisoblanishini [32; S. 37] qayd etadi.

Parlament – davlatning oliy vakillik organi bo'lib, mamlakat qonunlarini qabul qilishda mutloq huquqga ega bo'lgan davlat hokimiyati tarmog'idir.

Vakillik organlari yaxlit tizimiga uning yadrosi hisoblangan “parlament” boshchilik qiladi. Parlament turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Xususan, Amerika qo'shma shtatlari va ayrim Lotin Amerikasi mamlakatlarida – “Kongress”, Rossiya Federatsiyasida – “Federal Majlis”, Shvetsiyada – “Riksdag”, Litva, Latviya, Polsha va Finlandiyada – “Seym”, Norvegiyada – “Storting”, Ukrainada – “Oliy Rada”, O'zbekistonda – “Oliy Majlis”, Qoraqalpog'istonda – “Jo'qorg'i Kenges” va hokazo.

Parlament har qanday demokratik, huquqiy jamiyatda davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi tarmog'idir.

Parlament o'z kompetentsiyasini amalga oshirish mexanizmida xalqning suveren irodasini ifodalash talab etiladi. Bu, o'z navbatida, parlamentarizmning ham asosini tashkil etadi.

Parlamentarizm so'zi siyosiy ma'noda – “davlat organlari tizimida rahbarlik roli parlamentga ta'luqli bo'lgan davlat hokimiyati tuzumidir [33;]”.

Parlamentarizm – davlat faoliyatini tashkil etish xususiyatlaridan biri bo'lib, aholi tomonidan saylanadigan va doimiy ishlaydigan parlamentning mavjudligini, uning obro'-e'tibori va davlat ishlariga, jamiyatning siyosiy turmushiga ta'sirini, shuningdek, o'ziga xos ish shakllari hamda parlament a'zolari bilan saylovchilarning munosabatlarini xarakterlaydi [34; S. 317].

Soha olimlari “parlamentarizm” tushunchasi bo'yicha turlicha ta'riflarni qo'yidagicha ilgari suradi:

birinchidan, parlamentarizm – bir tomondan parlamentning hokimiyatlar taqsimlanishidagi mavqeini, ikkinchi tomondan parlamentning faoliyati va tashkil etilish printsiplarini ifodalaydi [35; S. 52];

ikkinchidan, deputatlarning haq to'lanadigan doimiy faoliyati, ularning ma'lum ijtimoiy maqomga egaligi, vakillik muassasasining ma'lum faoliyat doirasi (qonunlar qabul qilish, soliq tizimini joriy etish va davlat byudjetini tasdiqlash, ichki va tashqi siyosatga ta'sir ko'rsatish, bir qator davlat organlarini shakllantirish, parlament faoliyati vazifalarini bajarish), uning ma'lum ish shakllari, uslub va usullarini parlamentarizmning asosiy belgilari sifatida ko'rsatadi [36; S. 26-29];

uchinchidan, parlamentarizmning rivojlangan, ochiq, yopiq, oqilonalashtirilgan, ministerial, nomenklaturaviy turlari bor ekanligini ko'rsatadi [37; S. 6].

Mualliflarning parlamentarizm tushunchasi bo'yicha ilgari surgan fikrlariga ko'pchilik olimlar qatorida biz ham qo'shilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность – Т.: ТГЮИ. – 2003. С. 13.
2. Халипов В.Ф. Наука о власти. Кратология. - М.: Ось-89. – 2002; Ледяев В.Г. Власть: концептуальный анализ // Полис: политические исследования – 2000. - № 1. С. 97- 107; Любашиц В.Я. Государственная власть: понятие, особенности и видм // Правоведение. – 2002. - № 6 . С. 224 – 238.
3. Барихин А.Б. Большой юридический энциклопедический словарь. - М.: Книжный мир, – 2005. С.77; Большая юридическая энциклопедия. - М.: Изд-во Эксмо, 2005. С.93-94; Николаев Е.А. Принцип разделения власти и проблемы государственного строительства. Право и политика. - 12/2003. С.14.
4. Халипов В.Ф. Наука о власти. Кратология. - М.: Ось-89. – 2002. С. 13.
5. Халипов В.Ф. Наука о власти. Кратология. - М.: Ось-89. – 2002. С. 13.
6. Аристотель Соч.: В 4-х.т. – М.: - 1984. Т.: 4. - С. 376-380
7. Соловьев В.С. Соч.: В 2-х.т. – М.: - 1990. Т.: 1. - С. 458
8. Любашиц В.Я. Государственная власть: понятие, особенност и виды. // Правоведение. – 2002. - № 6. – С. 224.
9. Аристотель. Соч.: В 4-х.т. – М., 1984. Т. 4. – С. 376-380.
10. Соловьев В.С. Соч.: В 2-х.т. – М.: - 1990. Т.: 1. - С. 458
11. Hakimov R.R. Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari. // Т.: 2012. – В. 10.
12. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va hokimiyat. Demokratlashtirish va inson huquqlari. - № 4 (12) – 2001. – В. 5.
13. Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. – Т.: ТГЮИ. – 2003. – С. 27.
14. Чиркин В.Е. Государствоведение. – М.: Юристь, 1999. – С. 85.
15. Азаров Н.И. Теория государства и права. – М.: Международный университет бизнеса и управления, 1998. – С. 48.
16. Izoh: “legitimlik” va “legallik” so‘zlarining negizini lotinchada “Lex” – “qonun” so‘zi tashkil etadi. Qarang: Websters dictionary for everyday use/ - USA. Ottenheimer Publishers Inc. – 1997. – P. 215.
17. Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права (Юриспруденции). – М.: Право и государство. 2003. – С. 180-181.
18. Чиркин В.Е. Государствоведение. – М: Юристь, 1999. – С. 84.
19. Алексеев С.С. Теория государства и права. // (Электрон манба – <http://www.ukrlawyer.narod.ru>)
20. Muhitdinova F. O‘zbekiston xalqlarining siyosiy va huquqiy ta’limotlari tarixi. O‘quv qo‘llanma. // Mas’ul muharrir: Toshqulov J.U. – Т.: TDYUI, 2004. – В. 106.
21. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Т. 8. – Т.: 2000. – В. 334-335.

22. Otaxonov F.H. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat (nazariy va amaliy muammolar). – T.: “Adolat”, 2007. – B. 17.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 7-apreldagi Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. // (Elektron manba - <https://president.uz/uz/lists/view/8034>; murojaat qilingan sana – 09.04.2025).
24. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq atamalarining izohli lug'oti: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Sharq, 2015. B. 143.
25. Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi: (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi): Darslik. / Mas'ul muharrir: Saidov A.X. 1-qism. – T.: “Adolat”, 1999. – B. 208-212, 264-270.
26. Федосов П.А. Двухпалатные парламент: европейский и отечественный опыт / Полис: Политические исследования. – 2001. - № 1. – С. 168-179; № 2 – С. 163-177.
27. Крашенниковой Н.А., Жидкова О.А. История государство и права зарубежных стран. Част 1. – М.: Издательская группа норма – инфра – М, 1998. – С. 266-268.
28. Zulfiqorov Sh.X. O'zbekiston Respublikasi Parlament huquqi: O'quv qo'llanma – T.: TDYUI. – 2009. B. 23.
29. Ислотов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: 2003. – Б. 76.
30. Халилов Э.Х. Становление и развитие высшего законодательного органа государственной власти Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Т.: – 2000 – С. 3.
31. Mirzayeva G.R. Qonun chiqaruvchi hokimiyat (nazariy-huquqiy tahlil). Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: – 2004. – B. 53.
32. Гранкин И.В. Парламент России. М.: - 1999. С. 37.
33. Elektron manba – <https://uz.wiktionary.org/wiki/parlamentarizm> (murojaat qilingan sana – 14.04.2023).
34. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasi rahbari Mustafoyev B. – T.: – 2006. B. 317.
35. Ислотов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т.: 2003. Б. 52.
36. Авакьян С.А. Федеральное собрание.- Парламент России. М., 1999. С. 26-29.
37. Степанов И.М. Парламентское право России. М., С. 6.